



FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA
BOSHQARMASI



FARG'ONA VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI




2023- YIL
YANVAR-SENTABR

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari¹⁾ (yanvar-sentabr)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinnlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan




Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	19 061,9	100,0	106,9
Farg'ona sh	6 401,0	33,6	105,7
Qo'qon sh	3 316,8	17,4	107,2
Quvasoy sh	360,5	1,9	107,3
Marg'ilon sh	1 670,4	8,8	106,9
Oltiariq t	825,0	4,3	108,8
Qo'shtepa t	410,8	2,2	108,2
Bag'dod t	410,8	2,2	109,0
Buvayda t	678,2	3,6	109,5
Beshariq t	485,4	2,5	108,6
Quva t	555,4	2,9	109,2
Uchko'prik t	697,6	3,7	102,3
Rishton t	497,6	2,6	107,1
So'x t	230,0	1,2	107,5
Toshloq t	495,3	2,6	109,5
O'zbekiston t	405,4	2,1	108,2
Farg'ona t	590,6	3,1	106,9
Dang'ara t	408,1	2,1	107,8
Furqat t	293,6	1,5	108,0
Yozyovon t	329,4	1,7	106,9

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 755,5** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,6 %** ni tashkil etdi



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajmi, ming. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	4 755,5	100,0	104,6
Farg'ona sh	20 179,6	33,6	100,4
Qo'qon sh	11 849,9	17,4	100,1
Quvasoy sh	3 612,4	1,9	105,0
Marg'ilon sh	6 727,3	8,8	105,1
Oltiariq t	3 658,5	4,3	106,5
Qo'shtepa t	1 998,2	2,2	105,4
Bag'dod t	1 787,4	2,2	106,2
Buvayda t	2 782,9	3,6	107,0
Beshariq t	2 022,4	2,5	106,7
Quva t	2 037,3	2,9	107,2
Uchko'prik t	2 927,5	3,7	102,8
Rishton t	2 325,1	2,6	104,9
So'x t	2 781,5	1,2	105,4
Toshloq t	2 291,9	2,6	107,1
O'zbekiston t	1 744,5	2,1	115,5
Farg'ona t	2 700,7	3,1	109,0
Dang'ara t	2 339,8	2,1	112,7
Furqat t	2 341,3	1,5	105,7
Yozyovon t	2 787,2	1,7	104,6

Farg'ona viloyati xizmatlar sohasining rivojlanishi


Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	12 435,5	100,0	107,7
Farg'ona sh	2 981,9	24,0	107,9
Qo'qon sh	2 328,0	18,7	106,7
Quvasoy sh	283,7	2,3	107,6
Marg'ilon sh	1 420,9	11,4	107,4
Oltiariq t	695,7	5,6	108,3
Qo'shtepa t	331,5	2,7	107,6
Bag'dod t	306,3	2,5	107,5
Buvayda t	399,6	3,2	108,5
Beshariq t	342,6	2,7	107,5
Quva t	365,6	2,9	107,7
Uchko'prik t	496,8	4,0	110,6
Rishton t	366,9	3,0	106,5
So'x t	194,7	1,6	108,1
Toshloq t	362,0	2,9	107,5
O'zbekiston t	291,4	2,3	108,2
Farg'ona t	420,0	3,4	109,0
Dang'ara t	316,0	2,5	108,0
Furqat t	246,3	2,0	107,6
Yozyovon t	285,6	2,3	107,3

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona shahrida kichik tadbirkorlik hajmi **2 981,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. Kichik tadbirkorlik xizmatlarining umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **24,0** % ga yetdi. Farg'ona shahri bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida (**6 401,0** mlrd. so'm) ulushi **33,6** % ni tashkil etdi. Bunga mazkur hududda ro'yxatdan o'tgan yirik korxonalarining ko'pligi sabab bo'lmoqda.

So'x tumanida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **194,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi (**230,0** mlrd. so'm) ushbu hududning ulushi **1,2** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (yanvar-sentabr)



2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan **2023- yilning** mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **2 905,9 mlrd. so'mga oshib**, **4 128,2 mlrd. so'mga** yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **21,7** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **105,3 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiyligi hajmida Farg'ona shahrining ulushi **47,6** foizni yoki **1 964,0 mlrd. so'mni** tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan Quvasoy shahrida yuqori o'sish sur'ati **128,2 %** ni tashkil etdi.



Transport xizmatlari (yanvar-sentabr)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi **3 511,2** mlrd. soʻmni tashkil etib, **2022-** yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining oʼsish surʼati **105,2 %** ni tashkil etdi. Koʼrsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi **18,4 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari boʼyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʼliq boʼlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga koʼra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bogʼliq boʼlib, faoliyat koʼrsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **1 602** birlikni, yoki ularning umumiyligi sonining **3,9 %** ini tashkil etdi. Ulardan **1 584** birlik (**98,9 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Hududlar kesimida transport xizmatlari

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	3 511,2	100,0	105,2
Farg'ona sh	1 099,7	31,3	115,3
Qo'qon sh	658,5	18,6	99,8
Quvasoy sh	59,6	1,7	111,8
Marg'ilon sh	411,1	11,7	108,3
Oltiariq t	279,6	8,0	109,8
Qo'shtepa t	92,1	2,6	109,1
Bag'dod t	65,0	1,9	108,2
Buvayda t	65,7	1,9	108,3
Beshariq t	65,5	1,9	108,2
Quva t	70,9	2,0	108,3
Uchko'prik t	80,3	2,3	108,4
Rishton t	85,9	2,4	129,5
So'x t	46,0	1,3	104,4
Toshloq t	124,5	3,5	126,0
O'zbekiston t	72,9	2,1	108,9
Farg'ona t	68,7	2,0	103,0
Dang'ara t	73,2	2,1	108,6
Furqat t	55,0	1,6	108,3
Yozyovon t	37,1	1,1	101,8


O'zbekiston geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan Farg'ona viloyatida transport xizmatlari hajmi **1 760,8** mlrd. so'mga oshib, hisobot davrida **3 511,2** mlrd. so'mni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **105,2 %** ni tashkil etgan.

Savdo xizmatlari (yanvar-sentabr)

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2 959,7 mlrd. so'mga oshib, 5 725,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati 107,0 % ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiyligi sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

14 528 birlik


1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan

14 490 birlik

1- oktabr holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlari

2023- yilning 1-oktabr holatiga

ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsa-tayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi **26,9 %** yoki **14 528** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,7 foizi (14 490 birlik)** kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.






Savdo xizmatlarining tarkibi

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	5 725,4	100,0	107,0
Farg'ona sh	1 206,9	21,1	115,5
Qo'qon sh	846,5	14,8	95,3
Quvasoy sh	149,1	2,6	106,7
Marg'ilon sh	618,9	10,8	108,9
Oltiariq t	315,0	5,5	103,7
Qo'shsteka t	174,5	3,0	106,5
Bag'dod t	167,9	2,9	106,6
Buvayda t	221,7	3,9	108,6
Beshariq t	177,2	3,1	107,0
Quva t	175,6	3,1	106,2
Uchko'priq t	372,8	6,5	89,5
Rishton t	153,2	2,7	108,0
So'x t	103,5	1,8	106,9
Toshloq t	187,5	3,3	107,3
O'zbekiston t	135,3	2,4	106,4
Farg'ona t	218,7	3,8	107,0
Dang'ara t	159,0	2,8	107,5
Furqat t	133,6	2,3	106,3
Yozyovon t	208,5	3,6	105,7

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-sentabr)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 1 027,6 mlrd. so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,3 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida ularning ulushi 5,2 foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **903** birlikka yetdi, shundan **899** birligi (umumiyligi **99,5 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	1 027,6	100,0	120,3
Farg'ona sh	282,5	30,4	104,5
Qo'qon sh	64,9	2,4	104,4
Quvasoy sh	17,7	1,7	102,7
Marg'ilon sh	66,1	6,9	106,0
Oltiariq t	41,9	4,1	105,8
Qo'shstepa t	34,5	3,4	103,2
Bag'dod t	47,7	4,6	104,6
Buvayda t	52,9	5,5	103,9
Beshariq t	47,1	4,6	105,2
Quva t	66,5	7,0	110,6
Uchko'prik t	47,7	4,8	106,1
Rishton t	36,3	3,7	104,5
So'x t	15,8	1,1	102,3
Toshloq t	39,9	3,9	105,1
O'zbekiston t	49,5	4,8	106,3
Farg'ona t	42,3	4,1	105,2
Dang'ara t	32,8	3,2	103,1
Furqat t	20,1	1,7	103,6
Yozyovon t	21,2	2,1	106,3

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan Farg'ona viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **550,2** mlrd. so'mga oshib, ko'rib chiqilayotgan davrda **1 027,6** mlrd. so'mga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **5,4 %** ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-sentabr)

2023- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **855,3** mldr. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,6 %** ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Farg'ona viloyatining ulushi **4,5 %**ni tashkil etdi.



"Ta'lim" seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limdi va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam muktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-sentabr)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **401,3** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,1** % ini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.


2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **1 194** birlikni tashkil etdi, shundan **1 011** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. so'mda)

Farg'ona sh.	157,0	Uchko'prik t	10,3
Qo'qon sh	40,3	Rishton t	6,2
Quvasoy sh	2,3	So'x t	1,7
Marg'ilon sh	11,6	Toshloq t	6,6
Oltiariq t	9,2	O'zbekiston t	5,4
Qo'shtepa t	3,1	Farg'ona t	89,2
Bag'dod t	5,7	Dang'ara t	10,6
Buvayda t	5,2	Furqat t	2,4
Beshariq t	20,4	Yozyovon t	2,4
Quva t	11,6		

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-avgust)

2019- yilning yanvarsentabr oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi 238,5 mld. so'mga oshib, 468,4 mld. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **2 156** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **2 147** birligi (umumiyligining **99,6 %**) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-sentabr)**

